

NUTQIDA NUQSONI BO'LGAN BOLALARNI RUHIY RIVOJLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Halimova Ozoda Ma'murjon qizi

NamDU Pedagogika-psixologiya fakulteti

Defektologiya (Logopediya) yo'nalishi 3-bosqich talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarni ruhiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari, sezgi va idrok qilish qobiliyatlarini rivojlantirish kabi masalalar yoritilgan. Hamda mavzuga doir xulosa va takliflar bildirib o'tilgan.*

***Kalit so'zlar:** Nutqida nuqsoni bo'lgan bola, analizatorlar, idrok, artikulyatsiya apparati, disleksiya, alaliya.*

ХАРАКТЕРИСТИКА ПСИХИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ДЕТЕЙ С ДЕФЕКТАМИ РЕЧИ

Халимова Озода Мамурджановна

Наманганский государственный университет Педагогики и психологии
студентка 3 ступени курса дефектологии (логопедия)

***Аннотация:** В данной статье освещаются особенности психического развития детей с нарушениями слуха, такие как развитие сенсорных и когнитивных способностей. Выводы и предложения по теме также изложены.*

***Ключевые слова:** Ребенок с дефектами речи, анализаторы, когнитивные функции, артикуляционный аппарат, дислексия, алалия.*

CHARACTERISTICS OF MENTAL DEVELOPMENT OF CHILDREN WITH SPEECH DEFECTS

Halimova Ozoda Ma'murjon qizi

Namangan State University Faculty of Pedagogy and Psychology 3 rd stage student
of Defectology (speechology) course

***Abstract:** This article highlights the peculiarities of the mental development of children with hearing impairments, such as the development of sensory and cognitive abilities. The conclusions and suggestions on the topic are also started.*

***Keywords:** Child with speech defects, analyzers, cognition, articulation apparatus, dyslexia, allalia.*

Ma'lumki, yurtimiz kundan-kunga jadal rivojlanib borayotgan bir paytda yoshlarni aqlan teran, jismonan sog'lom va har tomonlama yetuk shaxs sifatida tarbiyalash muhimligi bilan bir qatorda dolzarb mavzulardan biri bo'lib turibdi. Ushbu masalalarga oqilona yondashgan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich esa o'zining "Tanqidiy taxlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" nomli kitobida shunday degan edilar. Maktabgacha ta'lim sohasida. Ochiq tan olishimiz kerak, biz bu muhim sohadagi ishlarni e'tibordan chetda qoldirdik. Ushbu sohada bolalarni qamrab olish 27 foizni tashkil etishini takidlagandilar. Bundan tashqari 2020-yil 24-yanvar kuni Prezidentimiz Oliy Majlisga murojaatnomasida 6 yoshli bolalarni maktabga tayyorlash tizimini joriy qilish to'g'risidagi kabi fikrlarni ilgari surdilar. Bundan ko'rinib turibdiki yosh avlodni bilim darajasini rivojlantirishga alohida e'tibor ko'rsatish bilan bir qatorda ularga zamonaviy shart-sharoitlar yaratib, ta'lim sharoitini rivojlantirish kerak. Ilmiy tadqiqotlar ham shuni ko'rsatadiki inson umri davomida egallaydigan ma'lumotlarni 80% ni 5-6 yoshgacha egallab bolar ekan.

6 yoshdan boshlab maktab ta'limiga o'tish bola organizmiga yangi talablarni qo'yadi. 6 yoshlik bolalarning psixofiziologik tadqiqotlarini ko'rsatishicha, ushbu yosh o'zida alohida o'tish davrini aks ettiradi. Aynan shu davrda ma'lum xulq-atvor qoidalarini bajarish, tengdoshlari va kattalar bilan o'zaro shaxsiy munosabatlarni o'rganish, xatti-harakatlarini boshqalarniki bilan muvofiqlashtirish kattalar ko'rsatmalarini eshita olish va bajarish uquvi shakllanadi.

Bolaning nutqi kattalar nutqi asosida rivojlanib boradi. Nutqning to'g'ri shakllanishi atrof-dagilar nutqiga, nutqiy tajribaga, turli nutq muhiti va ta'lim tarbiyaga bog'liq. Lekin nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi. Idrok esa sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarning ongda bevosita aks ettirishdir. Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, ayrim hossalarni esa sezamiz. Masalan, quyoshni biz idrok qilamiz, uning yorug'ini esa sezamiz. Idrok qilish xis qilish bilan birgalikda bilish jarayonida teng ishtirok etadi.

Bilish jarayonining sharti sifatida, idrok qilish jarayoni fikrlash jarayoni bilan birga keladi. Idrok qilishning bir necha xil turlari mavjud bo'lib, ular muayyan shakllari bo'yicha farqlanadi: analizatorlarning ishtirokiga ko'ra (ko'ruv idroki, eshituv idroki, sezish idroki, hid bilish idroki, kinestetik idrok va x.k.); materiyaning mavjudligi shakliga ko'ra: atrof-borliqni idrok etish, vaqtni idrok etish, harakatlarni idrok etish; psixik faolligiga ko'ra: oldindan o'ylangan, oldindan o'ylanmagan idrok etish.

Ko'rish sezgisini nur qo'zg'atadi, eshitishni havo orqali keluvchi ovozlarni qo'zg'atadi, hidlash havo bilan burunga uriladigan hidlar orqali paydo bo'ladi, ta'm ozuqaning mazasi bilan vujudga keladi. Ammo namlik bunda shartdir. Bu to'rt sezgini

his etuvchi maxsus organlar mavjuddir. Beshinchi sezgi–sezish esa butun badanda voqedir, ammo dastavval uni teri sezadi.”

Sezgilar bilganlaridan bir bo‘lagini fikrga yetkazsa, fikr uni yanglishlardan tozalab aqlga topshiradi. Aql uni umumiy ishga aylantiradi. Faqatgina sezgi organlari yordamida o‘zlashtirilgan bilimlar xatolarga olib kelishi mumkin. Agar inson sezgilardan fikrlash va xulosa chiqarish yordamida foydalansa, ana shu sezgilar orqali idrok qilinadigan narsalarni o‘rganishda juda katta yutuqlarga erishmog‘i mumkin.

Sezgilar odatda sodda, elementar jarayonlar bo‘lib hisoblanadi, idrok esa murakkab psixik jarayondir. Biz idrok qilayotgan narsalar g‘oyatda xilma-xildir. Bular jumlasiga avvalo turli buyumlar (binolar, daraxtlar, mashinalar, uy jihozlari va h.k.) kiradi. Biz san‘at asarlari, musiqa, rasmlarni idrok qilamiz. Og‘zaki va yozma nutqni idrok qilamiz. Bu narsalar va hodisalar bir-biridan ajralgan holda emas, balki boshqa ko‘plab narsalar bilan makon va vaqt jihatdan bir-biri bilan bog‘langan holda idrok qilinadi.

Bola dunyoga kelganda sezgilari shakllanib bo‘lgan bo‘ladi. Lekin ushbu sezgilarning meyordagi funksiyasi atrof-borliqni idrok etishlarini ta‘minlaydi.

Idrok etish jarayoni to‘g‘ri shakllanishi uchun, maqsadga yo‘naltirilgan xissiy tarbiya zarur va muhimdir. Bolaga ko‘rishni, barmoqlar bilan paypaslashni, obektlarni eshitishni o‘rgatish kerak, ya‘ni unda idrok qilish harakatlarini shakllantirish kerak.

Idrok qilish jarayonida bolada asta sekinlik bilan ko‘rish, eshitish, harakat, bilish obrazlarini orttirib boradi. Lekin bunda bola predmetlarning munosabatlari va belgilarini idrok qilishi jarayonida, bu munosabatlar va belgilar so‘zlar bilan izohlangan bo‘lishi kerak. Bu esa predmetning obrazlari haqida tasavvurlarni mustahkamlaydi, ularni yana ham aniqlashtiradi. Agar idrok qilingan obrazlar so‘zlar bilan mustahkamlangan bo‘lsa, bir qancha vaqt o‘tganidan keyin ham bu obrazlar bola tasavvurida tiklanishi mumkin.

Idrok qilishning fonematik buzilishi nutq nuqsoniga ega bolalarning hammasida kuzatiladi, bunda nutq-eshitish va nutq-harakat analizatorlari orasidagi bog‘liqlik bo‘lmasligi kuzatiladi.

Nutq nuqsoniga ega bo‘lgan bolalarda tovushlarni ajratishda qiyinchiliklar uchraydi, bu esa nutqning tovush tomonining rivojlanishiga o‘z tasirini ko‘rsatadi. Bular yana ikkilamchi nuqson sifatida tovushlarni talaffuz qilishga ham o‘z tasirini ko‘rsatadi. Bunday bolalar nutqidagi kamchiliklar, artikulyatsiya apparatidagi kamchiliklar asosida tovush talaffuz qilishdagi o‘zgarishlar, ko‘pgina almashtirishlar, artikulyatsiya apparat o‘z funksiyasini to‘liq bajarmasligi natijasida fonematik qabul qilishiga birinchi o‘rinda ta‘sir qilib, uning shakllanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Fikrlash qobiliyati nutq negizida paydo bo‘ladi. Nutq kishi tafakkurining rivojlanish darajasini ham belgilab beradi. Nutqdagi kamchiliklar bolaning tafakkuri,

xotirasi diqqati va boshqa ruhiy jarayonlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutqi sog'lom bolalarnikidan ajralib turadi: ular idrok etish uchun osonroq, oddiy tushunchalarni tanlashadi. Ko'pchilik nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar geometrik shakllarni ko'rish jarayonida uning shakliga emas, rangiga ahamiyat beradilar.

Nutqida kamchiligi bor bolalarda, ayniqsa dizartrik(markaziy nerv sistemasining organik shikastlanishi oqibatida tilning tovush tizimini buzilishi)lar va alaliklarda mayda qo'l motorikasi yaxshi rivojlanmaganligi tufayli taktil-harakat orqali idrok etish xususiyati ham buzilgan bo'ladi. Agar nutqida kamchiligi bor maktabgacha yoshdagi bolalarda shu psixik funktsiya o'z rivojlanish meyoridan orqada qolgan bo'lsa, ularda predmetning yaxlit obrazini yetarlicha idrok etish shakllanmagan bo'ladi.

Alalik (a-inkor, laliya-nutq) bolalarda fazoviy buzilishlar, ayniqsa, odam sur'atini chizishda yaqqol ko'rinadi: tasvirlashning qashshoqligi bilan, detallar sonining kamligi va oddiyliigi, hamda o'ziga xos optik-fazoviy buzilishlarning mavjudligi bilan ajralib turadi. Biroq, nutqi buzilgan bolalarda fazoviy buzilishlarning o'rni rasmda ifodalangan hissiy jo'shqinlik evaziga kompensatsiya qilinadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki: Demak, idrok va nutq o'zaro chambarchas bog'liq. Har bir idrok nutqda ifodalanadi. Masalan, "bu kitob", "bu odam" va h.k. Odamning idroki sezgi organlariga ta'sir ko'rsatayotgan biron narsaning oddiygina obrazi emas, balki odamning tajribasi zaminida anglab, tushunib oladigan obrazdir. Idrokning mazmuni asosan odam hosil qilgan tajribaning boyligi, unda tafakkur va hayolning nechog'li taraqqiy qilganligi bilan belgilanadi. Bunda nutq yetakchi o'rin egallaydi. Nutq nuqsonlariga ega bo'lgan bolalarda esa idrokning barcha turlari o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi. Shuning uchun ular bilan olib boriladigan korreksion-logopedik ishda nutq kamchiliklarini to'g'rilash bilan birga idrokni rivojlantirish ham talab qilinadi. Bolalarda nutqning rivojlanmasligi tafakkur rivojlanmasligiga olib keladi, shuning bilan birga, nutqi to'liq rivojlanmagan bolalarning markaziy nerv sistemasidagi kichik zararlanishlar ruhiy faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning idroki ya'ni, 5-6 yoshdagi bolalar bilish faoliyatlaridagi sezgi, xotira, diqqat, tafakkur va nutqning rivojlanmasligi yoki orqada qolishi nerv sistemasining rivojlanishiga va uning xususiyatlariga bog'liqdir. Har qanday nutq nuqsonlarida korreksion ishlarning olib borilishi kabi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar nutq faoliyatini faollashtirishda ruhiy faoliyatlarini rivojlantirishning ahamiyati kattadir. Chunki bolani ruhiy faoliyatni rivojlantirmasdan turib nutqni rivojlantirish katta qiyinchiliklarga olib keladi. Muammoning dolzarbligi nutqi to'liq rivojlanmagan bolalar ruhiy faoliyatini xolatini o'rganish va korreksion ishlarni to'g'ri olib borishdan iboratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. G.Temurova Nutqning ontogenezda rivojlanishi. Jizzax-2018.y.
2. D.R.Madazizova Bolalar rivojlanishidagi nuqsonlarning klinik asoslari. "O'zb.faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Tosh.2018.y.
3. SH.Mirziyoyev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent "O'zbekiston"-2017.y.
4. Ayupova.M.Y. Logopediya. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. Toshkent-2007.y.
5. "Logopediya" (L.S. Volkova tahriri ostida)